



RUS VA O'ZBEK TILIDAGI ROD KATEGORIYALARI VA ULARNING FARQLI JIHLTLARI

¹Utemuratova Mohira Qidirniyoz qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti "O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili" yo'nalishi 1-bosqich talabasi,

²Hamza Allambergenov Kamalovich

Ilmiy rahbar: Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek adabiyoti kafedrasida PhD.

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p2-68>

ARTICLE INFO

Received: 16th February 2023

Accepted: 26th February 2023

Online: 27th February 2023

KEY WORDS

Ot, rod kategoriyasi, grammatika, undosh, jenskiy rod, mujskoy rod, sredniy rod, umumiy rod.

ABSTRACT

Mazkur maqolada otlardagi rod kategoriyalarining rus va o'zbek tillari grammatikasidagi o'rni haqida fikr yuritilgan. O'xshash va farqli tomonlari ochib berilgan.

Rus tilida otlar uchta jinsdan biriga bo'linadi: "mujskoy rod, jenskiy rod, sredniy rod". Jonli otlar jinsga ko'ra "mujskoy rod" va "jenskiy rod" ga qarashli bo'ladi. Masalan: ota, aka, tog'a (erkak jinsli) - "mujskoy rod", opa, ona, xola (ayol jinsli) - "jenskiy rod", "sredniy rod" ga qarashli bo'ladi. Rod ushbu so'zlarning oxiridagi qo'shimchalariga asosan aniqlanadi. Ular bir-biridan shakl jihatidan keskin farq qiladi. O'zbek tilida bunday hodisa uchramaydi. O'zbek tilida ba'zan jenskiy rodni bildiruvchi qo'shimchalar uchraydi. Masalan: muallima, Rajabbayeva.

Rus tilida otlarning mujskoy rod, jenskiy rod, va sredniy rodga tegishli ekanligi quyidagicha aniqlanadi:

Mujskoy rodga quyidagi so'zlar kiradi:

- erkek jinsidagi jonli narsalarni anglatadigan so'zlar - папа, дядя, брат
- qattiq undosh bilan tugagan so'zlar: стол, стул, рот, нос
- yumshatish belgisi bilan tugagan so'zlar: конь, день
- й bilan tugagan so'zlar: репой, край
- qattiq yoki yumshoq shipillovchi tovush bilan tugagan so'zlar: нож, карандаш, луг, плащ kabi

Jenskiy rodga quyidagi so'zlar kiradi:

- ayol jinsidagi jonli narsalarni bildiradigan so'zlar: мама, сестра, корова, овца
- oxiri - a bilan tugagan so'zlar: парта, доска, рука, нога
- oxiri - я bilan tugagan so'zlar: баня, дыня, пуля
- yumshatish belgisi bilan tugagan so'zlar: тень, цель kabilar¹

Lekin yumshatish belgisi bilan tugagan so'zlarning ba'zilari mujskoy rodga taalluqli bo'ladi, ba'zilari esa jenskiy rodga. Mujskoy rodga taalluqli bo'lgan so'zlar родительный

¹ Ахманова, О.С. Словарь лингвистических терминов. -М.Сов.энциклопедия, 1996



kelishikning birlik sonida -я bilan tugallanadi, jenskiy rodga taalluqli so'zlar esa -и bilan tugallanadi. Masalan: дождь-дождя(мужской род), тетрадь-тетради(женский род).

Ba'zi hayvon va qushlarning erkak va urg'ochiligini bildirish uchun boshqa-boshqa o'zaklardan yasalgan so'zlar ishlatiladi, masalan: бык(мужской род)-корова(женский род), петух(мужской род)-курица(женский род). Har ikkala tildagi otlar obyektivlik yoki hodisalarni ifodalaydi. Biroq ularning farqi shundaki, rus tilida otlar nafaqat son va hol kategoriyasiga, balki grammatikaning rod kategoriyasiga ham ega. O'zbek tilida esa otlarning obyektivlik ma'nosi son, hol, egalik kategoriyalari bilan uzviy bog'langan. O'zbek tilida rod kategoriyasi yo'q. O'zbek o'quvchilari uchun rod kategoriyasi yangi tushuncha bo'lgani sababli, ayrim hollarda otning rodini aniqlash, otlarning rodlarga ajratilgan kelishik shakllaridan foydalanish, fe'l-kesimlarni predmetning rod kategoriyasiga mos holda qo'llashda birqator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Rus tili o'qituvchilari tilni o'rgatishda o'quvchilarning ona tilining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari zarur. Nafaqat rus tilining rod, son va padej Grammatik kategoriyalari haqida, balki o'zbek tilidagi ot so'z turkumida egalik kategoriyasi xususiyatlari, rus tilida ifodalanishi, ikki til grammatikasi o'xshashlik va farqlari haqida tushuncha berishlari lozim. O'zbek tilida morfologik kategoriyalar tizimida otning birlik va ko'plik shakllarini o'z ichiga oladi. Bunda rod toifasi mavjud bo'lmaganligi sababli xolislikni ifodalashning asosiy vositasi sifatida rol o'ynolmaydi. Rus tili va rod kategoriyasi muhim bo'lgan boshqa chet tillar doirasida ot birikmalarining strukturaviy-semantik xususiyatlar sifatlar va fe'llar yordamida barcha shakllarda birlik ot bir rodga ishora qiladi. Rus tilida otlar rodga qarab tasniflanadi, lekin o'zgarmaydi. Rus tilida umumiy rodga mansub otlarning alohida toifasi mavjud, ya'ni ular erkaklar va jenskiy rod ham bo'lishi mumkin. Bunday so'zlar matnga ijobiy va salbiy hissiy rang berish imkonini beradi. Umumiy roddagi so'zlar mujskoy va jenskiy rodda ham bir xil shaklda o'zgarmagan holda ishlatiladi. Bularga: сирота(yetim), плакса(yig'loqi), коллега(hamkasb) kabi so'zlar misol bo'la oladi. Faqat ko'plikda ishlatiladigan otlar jins kategoriyasiga ega emas: ikki yoki undan ortiq qismlardan tashkil topgan narsalar: shimlar, vilkalar, qaychi va boshqalar. Umumiy rodni misol tariqasida ko'rib chiqsak:

Это Феруза. Он сладкоежка. (Bu Feruza. U shirintomoq.)

Это Анвар. Он сладкоежка. (Bu Anvar. U shirintomoq.)

Anvar mujskoy rodga tegishli so'z bo'lib, demak "shirintomoq" so'zi Feruza jenskiy roddagi so'zga ham Anvar mujskoy roddagi so'zga ham birxil ko'rinishda ishlatiladi. Chunki bu umumiy roddagi so'z hisoblanadi.

Grammatik rod kategoriyasi ko'pchilik hind, ovrupa tillariga, jumladan: nemis, ingliz tillariga xosdir.

References:

1. Azizov O va boshqalar O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti. 1965
2. Anorbekova A, Mirzayeva Sh Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent: "Noshir" nashriyoti, 2011.
3. Ахманова, О.С Словарь лингвистических терминов. -М. Сов.энциклопедия, 1996